

2. Информатика 7-9 И.Н. Цыбуля, Л. А. Сымыкбаева, А. А. Беляев, Н. Н. Осипова, У. Э. Мамбетакунов Бишкек Б.: «Сорос- Кыргызстан» Фонду, 2020 - 208 бет.
3. Роберт И.В. Уч. курс «Современные информационные и коммуникационные технологии в образовании» // Информатика и образование. – 1998. - №
4. Министерство образования и науки Кыргызской Республики, Методическое пособие по внедрению цифрового образования в систему образования Кыргызской Республики, Бишкек 2020.
5. 2021-2040-жылдары Кыргыз Республикасында билим берүүнү өнүктүрүү программасы- <http://cbd.minjust.gov.kg/act/view/ky-kg/158227>
6. Курманалиева А. О. Болочок инженерлердин креативдүүлүгүн маалыматтык технологияларды колдонуу менен калыптандыруунун дидактикалык негиздери (п.и.д., Сияевдин жетекчилигинде)-2019. http://arabaev.kg/dp.kg/img/1496309467_%20%D0%9A%D1%83%D1%80%D0%B C%D0%B0%D0%BD%D0%B0%D0%BB%D0%B8%D0%B5%D0%B2%D0%B0% 20%D0%90..pdf
7. Шолохович В.Ф. Дидактические основы информационных технологий обучения в образовательных учреждениях: Дис. ... д-ра пед. наук. – Екатеринбург, 1995. – 364 с.

TA'LIM OLUVCHILARNI TA'LIMGA BO'LGAN MUNOSABATINI SHAKLLANISHIDA KOMMUNIKATIV MUNOSABATLARNING O'RNI

Djumanov Sherali Zakirovich

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali

sherali.zhumanov.83@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim jarayonida talabalarni ta'lim jarayoniga moslashishi, talim jarayonida faolligini oshirishda kommunikativ munosabatlarning roli va o'rni yoritiladi. Maqoladan bo'lajak mutaxassislarining kommunikativ qobiliyatni shakllantirishni takomillantirish muammosi bilan shug'ullanuvchilar foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya jarayoni, ustoz va shogird faoliyati, shakllantirish, shaxsiy muvaffaqiyat, tarkib toptirish, diskommunikatsiya, omillar, xushomad qilish usuli, ijtimoiy yaqinlik.

Mavzuning dolzarbligi: ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarni mustakil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bulib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan kadr bo'lib kamol topishi, pedagogika sirlarini o'rganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta'lim jarayonida asosiy vazifa bo'lib kelgan.

Pedagog kishilar bilan normal munosabatlarni o'rnatish, ayniqsa, pedagogik sohasida o'quvchilar va uning ichki kechinmalari va o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olish amaliy psixologiyada kommunikativ o'quvsizlik yoki diskommunikatsiya holatini keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham talabalarni kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. Har bir ziyoli kishi boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak. Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni har qachongidan dolzarb qilib ko'ymoqda.

Ushbu muammo ta'lim jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining turli jihatlari haqida sharq mutafakkirlarining asarlarida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Jumladan, Forobiyning o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish, ustoz va shogird faoliyati haqida shaxsga qo'yiladigan talablar, insonlar jamoasidagi o'zaro hamjihatlik, yordam, inson kamolati va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni to'g'risidagi g'oyalari hozirgi o'quv-tarbiya jarayonlarini takomillashtirishda, ustoz va shogird hamkorlik munosabatlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda, yoshlarda kasbiy va shaxsiy fazilatlarining shakllanishida g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

Ibn Sino (980-1037) "Tib qonunlari" asarida o'quv tarbiya jarayoni yagona jarayon ekanligini ta'kidlab, bolani olti yoshdan boshlab muallimga topshirish xususida fikr yuritadi. Ta'limda o'qitish oddiylikdan murakkablikka qarab borish qoidasiga amal qilish, shuningdek, bolaga kuchi etadigan (jismoniy va psixologik imkoniyatlariga mos) mashqlarni bajartirish amaliy bu jarayonda katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi.

Muallif bolalarni yakka-yakka o'qitishdan ko'ra, jamoada ta'lim tarbiya berish, o'qituvchi bilan o'quvchining hamkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish afzal ekanligini e'tirof etadi. Allomaning fikricha, jamoada o'qitilganida ularda ilmga intiluvchanlik kuchayadi, boshqalardan orqada qolishga g'ururi yo'l qo'ymaydi. O'zaro hamkorlik ular nutqining o'sishida, fikrining charxlanishida, xotirasining mustahkamlanishida muhim rol o'ynaydi. Ta'lim jarayonida o'quvchilar bir-birlari bilan inoqlashadilar, o'zaro hurmat qilishga odatlanadilar, munozara qilishni o'rganib, o'zaro musobaqalashadilar, o'zlarining xulq va burchlari haqida fikr almashadilar. Ana shunday qoidalarga asoslangan o'quv-tarbiya jarayonigina yoshlarning aqliy va axloqiy kamolotini ta'minlashga ko'maklashadi.

Ibn Sino hamkorlikning mohiyati haqida mulohaza yuritib shunday deydi: "Inson o'z faoliyatida nimagaki erishsa, u faqat o'z mehnati bilan amalga oshira olmaydi, ularni yaratish uchun boshqalar ham ishtirok etishi kerak yoki jamoa yordam berishi lozim. Buning uchun jamoa a'zolari o'zaro yaxshi munosabatda bo'lishlari kerak. Yaxshilik odamlarni inoqlikka, yomonlik esa kelishmovchilikka olib boradi. Aniq maqsad bilan harakat qilish insonni va jamoani yomondan saqlaydi, yaxshi ishlar qilishga yo'llaydi, unda ishonch tuyg'usini uyg'otadi".

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, sharq mutafakkirlarining hayotiy kuzatishlari va g'oyalari nafaqat o'z davrida ta'lim-tarbiya sohasini rivojiga, balki hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi: zamonaviy o'qituvchi pedagogik faoliyatda kommunikativ munosabatlar usullaridan to'g'ri foydalanib, o'quvchilar ongiga quyidagicha ta'sir etsa, o'quvchilar ta'lim-tarbiya jarayonida ruhan kuchli bo'ladi.

Ularning bu darajada bo'lishlariga o'qituvchining kommunikativ munosabatniga bog'liq.

Tadqiqot usullari: har qanday kasb sirlarini mukammal egallash uchun qobiliyat kerak. Pedagogik qobiliyat sog'lom o'qituvchidagina shakllanadi. Biroq u yuqori, o'rtacha va past darajada bo'lishi mumkin.

Pedagogik faoliyatda kommunikativ munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi:

- ✓ o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;
- ✓ munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- ✓ bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatish;
- ✓ munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni pedagogik talablar asosida oqilona boshqarish;

- ✓ munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz tahlil etib borishi lozim.

O'qituvchi tarbiyachi sifatida tarbiyalanuvchi o'quvchilarni o'zi uchun hamisha tarbiya ob'ekti deb hisoblashi kerak. Biroq tarbiyalanuvchi o'qituvchi-o'quvchi bilan erkin va ongli munosabatda bo'lishga erishsagina, tarbiyaviy munosabatlar samarali xarakter kasb etadi. Tarbiyaviy faoliyatning kommunikativ munosabatlar jarayonida o'ziga xos qator qoidalar ham mavjud bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishda ushbu qoidalarni mukammal bilishi lozim.

Pedagogik muloqotda ilhomlantiruvchi pedagogik ta'sirlar

№	Muloqot usullari	Muloqotning mazmun-mohiyati	Muloqot ta'sirining maqsad-vazifalari
1	Munosabatlar oynasi	Munosabatlar oynas usulining mazmuni pedagogik jarayonda o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish.	Muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchiga "Men - sizning do'stingizman!" degan belgini va signalni o'tkazish. Do'st esa insonni kerakli paytda himoya qiladi. Himoyalanihga bo'lgan ehtiyojning qondirilishi har qanday shaxsda ijobiy hissiy holat vujudga keltiradi. Sizda bunday ijobiy hissiy holatni vujudga keltirgan insonga nisbatan moyillik shakllanadi.
2	Ismi bilan atash	O'quvchiga ismi bilan murojaat qilish va uning shaxsga bo'lgan e'tiborini tortish	Har qanday inson o'z ismi orqali o'z shaxsini namoyon qiladi, uning ismi unga uning ichki kiyimi kabi yaqin ham deyishadi. O'quvchiga ismi bilan murojaat qilish va o'quvchida o'z shaxsini namoyon qila olish ehtiyojining qondirish hamda o'quvchida ijobiy hissiy kechinmani vujudga keltirish.
3	Oltinga teng so'zlar	O'quvchidagi ijobiy sifatlarni ko'ra olish va	Kompliment quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

	(kompliment), xushomad qilish usuli	bir oz bo'lsa ham o'quvchini ijobiy hislatlarini bo'rttirishga qaratiladi.	to'g'ridan-to'g'ri o'quvchiga murojaat qilib, undagi ijobiy sifatlarni aytish orqali, "solishtirish", ya'ni adabiyotlardagi ijobiy qahramonlar bilan solishtirish yordamida, "ikki tomonlama kompliment" - suhbatdoshning o'g'li va qizi to'g'risida iliq fikrlarni bildirish chog'ida, suhbatdosh haqida iliq fikrlar bildirish orqali muloqotda o'qituvchi o'quvchida suhbatga moyillikni vujudga keltirish, unda o'z navbatida kompliment hosil qilish, yaxshi munosabatni mustahkamlash, berilgan ko'rsatmani bajarishga undash, muvaffaqiyatga undovchi turtki berish, muvaffaqiyatsizlikdan saqlovchi motivlar hosil qilish, suhbatdoshninig moslashishga yordam berish kabi bir qator psixologik vazifalar kuzatiladi.
4	Sabr - toqatli tinglovchi bo'lish usuli	O'qituvchi o'quvchini suhbatda sabr-toqat va e'tibor bilan tinglashdan iborat	Bunda o'quvchi o'z fikrini to'liq ayta olish ehtiyojining qondirilishi va shu bilan bog'liq ravishda ijobiy hissiy holatning vujudga kelishi amalga oshadi.

Xulosa: demak, tinglash madaniyati muloqot jarayonining samarali bo'lishida muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun talabalarni diqqat bilan tinglashimiz, unda o'z-o'ziga hurmatni tarbiyalashimiz, uni ilhomlantirishimiz va ruhlantirishimiz orqali ta'lim samaradorligini oshirishga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Djumanov Sh.Z. Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish texnologiyalari // Kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari. Xalqaro miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallari to'plami – Jizzax: O'zMU Jizzax filiali, 2022-yil 14-15-oktyabr. 522-bet.

2. Djumanov Sh.Z. Talabalarni kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish va kasbiy muomala jarayoniga tayyorlash. *Ўзбекистонда психологияни ривожлантириш муаммолари: назария ва амалиёт уйғунлиги*, 112-115.

3. G'oziyev.E.G'. Muomala psixologiyasi. - Toshkent: Universitet, 2001. - 140 b.

4. Karimova V.M., Akramova F.A., Ochilova G.O., Musaxanova G.M. Pedagogika psixologiya. O'quv qo'llanma – T.: TDIU, 2010 - 393 b.
5. To'raqulova I.X. Talabalarning ma'naviy – immuniologik tarbiyasini takomillashtirish texnologiyalari. Ped.fan.nom. ...diss. – T.: 2011 - 52 b.
6. Zakirovich, Djumanov Sherari. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research* (2022): 543-545.
7. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi.- Toshkent: O'qituvchi , 1997. – 272 b.
8. Джуманов, Ш., & Холикулова, С. (2022). Талабаларда коммуникатив қобилиятларни шакллантириш имкониятлари. *Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы*, 1(1), 513-515.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BO'LAJAK ENERGETIKLARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH KONSEPSIYASI

Hafizov Erkin Alimboy o'g'li

O'zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak energetik muhandislarni raqamli texnologiyalar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini rivojlantirishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: kasbiy, raqamli, muhandis, texnologiya, konsepsiya.

Bugungi kunda mamlakatimizda zamon talablari asosida ta'lim jarayonini tashkil etish, jumladan, texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalari elektr energetikasi sohasi bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish" vazifasi belgilanganligida o'z aksini topadi. Bularni amalga oshirishda bo'lajak energetik muhandislar kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha kasbiy faoliyat obyektlariga mos o'quv dasturlarini ishlab chiqish, ularni innovatsion sharoitlarga mos ravishda kasbga tayyorlash metodikalari va didaktik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda sanoatning barcha tarmoqlarida shu jumladan, ishlab chiqarish korxonalari uchun texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalaridagi energetik muhandislarni tayyorlashda mutaxassislik fanlarini samarali o'rgatishga katta e'tibor qaratilmoqda[1].

Zamonaviy sharoitda energetik muhandislar uchun raqamli texnologiyalar konstruktiv vosita hisoblanib, energetik muhandislarning kasbiy mahoratini oshirish va kelajakda funktsional vazifalarni bajarishga moslashishlarida asosiy ish qurol